PEDAGOGIK NUTQ TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Ayaqulov N. A.,
GDPI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, f.f.f.d., (PhD), dotsent

Annotasya: maqolada o‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqotning ahamiyati va o‘quvchilarni o‘zlashtirish jarayoniga ta’siri tahlil etilgan. Bundan tashqari pedagogik muloqot uslubini to‘g‘ri qo‘llash orqali, o‘quvchilarni odob-axloqi, mavzusini o‘zlashtirish bilan bog‘liq jihatlari maqolada aks etgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, muloqot uslublari, fikrlash tarzi, nutq madaniyati, muomala odobi.

Аннотация: в статье анализируется значение педагогического общения в профессиональной деятельности учителя и его влияние на процесс обучения студентов. Кроме того, в статье отражены аспекты, связанные с правильным использованием приемов педагогического общения, в том числе этикета и овладения предметом студентами.

Ключевые слова: система образования, стили общения, стиль мышления, культура речи, этикет.

Abstract: the article analyzes the importance of pedagogical communication in the professional activity of a teacher and its impact on the process of student learning. In addition, the article reflects the aspects of students' etiquette and mastery of the subject through the correct use of pedagogical communication methods.

Key words: education system, communication styles, thinking style, speech culture, etiquette.

O‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri – uning o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikda ta’lim-tarbiya faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg‘in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo‘lishidir. Pedagogik – psixologik yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot ishlarida, o‘qituvchilarning sermahchul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan kommunikativ qobiliyati to‘g‘risida ko‘plab fikr va mulohazalar yuritiladi.

O‘qituvchi o‘z kasbiga qiziqmasa, o‘quvchilarga nisbatan mexr-muxabbati bo‘lmasa, ular bilan qizg‘in muloqot qila olish qobiliyati, ya’ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shunday dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o‘qituvchining integral fanlar asoslarini va o‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero u, bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot, ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti mazmuni sifatida namoyon bo‘ladi.

Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo‘lgan muloqot, xar qanday kasbiy faoliyatning barcha turlarida mavjud. Biroq bir qator kasb egalarida (chunonchi, pedagog, shifokor, san’atkor va xokazo) u kasbiy faoliyatga shunchaki hamrox bo‘lgan oddiy omil emas, balki kasbiy ahamiyat kasb etadigan, uning asosini tashkil etadigan muhim kategoriya sanaladi. Bu holda muloqot insonla o‘rtasidagi odatiy o‘zaro hamkorlik shakli emas, balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlovchi kategoriya sifatida mavjuddir. Ayniqsa, pedagogik

faoliyatga muloqot muhim funksional, o‘qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib,o‘zaro ta’lim va tarbiyaviy ta’sir quroli sifatida namoyon bo‘ladiki, bunda muloqotning muhim shartlariga va qonuniyatlariga, qo‘shimcha vazifalariga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

O‘qituvchi nutqining boyligi (rang-barangligi) deyilgandi, unda ishlatilgan til vositalarining ko‘pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko‘rsatgan ta’siri tushuniladi. Ko‘pgina kishilarning ogzaki nutqida (ba’zan yozma nutqida ham) so‘zlar ko‘p marotaba takrorlanadi. Nutqda fikrni yorqinlashtirish uchun zarur bo‘lgan til vositalari ishlatilmaydi. Bunday nutqni eshitish kishiga malol keladi. Nutq so‘zlovchi o‘z oldiga ko‘ngan maqsadni tinglovchiga to‘la yetkaza olmaydi. Albatta, bunday nutq so‘zlovchining tilni yaxshi egallamaganligini, o‘z nutqi uchun qunt bilan mehnat qilmaganligini ko‘rsatadi.

Jaxon adabiyotiga katta hissa o‘shgan ko‘pgina olimlarning so‘z boyligi uslubiy jihatdan o‘rganilib chiqilgan. Masalan, rus shoiri A.S.Pushkin o‘z asarlarida 21197 so‘zdan, Shekspir 20000 so‘zdan, Servantes 18000 so‘zdan, Abdulla To‘kay 14000 so‘zdan, Abay esa 6000 so‘zdan foydalangan. Navoiyshunoslik olim Bafosning ma’lumotiga ko‘ra, ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy so‘z ishlatish borasida ham teng yo‘q shahs bo‘lgan. Uning asarlarida taxminan 1376667 so‘z ishlatilgan. Bu tadqiqotchining xabar berishicha, birgina “G‘aroyibus-Sigar”ning o‘zida 7669, “Farxod va Shirin” da 5431 so‘z turli ma’nolarda qo‘llanilgandir. O‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi Oybekning so‘z xazinasi 25000 birlikdan iborat bo‘lgan. Abdulla Qahhor 22000 so‘zdan foydalangan.

Umuman olganda, xozirgi zamonning oliy ma’lumotli yetuk kishisi o‘z nutqiy faoliyatida 10000-12000 til birligidan foydalanishi mumkin.

O‘qituvchi nutqining o‘rinligini – nutq fazilatlari ichida eng muhimlaridan biridir. Chunki nutqning boshqa fazilatlari barcha uchun, nutq so‘zlanib turgan sharoit uchun o‘rinli bo‘lsagina, o‘zini ko‘rsata oladi. Aks holda, to‘g‘rilik ham, ifodalilik ham anglashilmaydi. O‘rinlilik nutqning ma’lum bir voqea-hodisaga, aloqaning maqsadi va sharoitiga moslab tuzilishidir. O‘rinli nutq berilayotgan ma’lumotga, tinglovchilarning nutq so‘zlanilayotgan paytdagi ruhiy holatiga xos bo‘ladi. Masalan, nikox to‘yi kechasida aytilgan nutq bilan ish yuzasidan o‘tkazilgan majlisda so‘zlangan nutq o‘z so‘z tarkibi, uslubi, ohangi bilan bir-biridan keskin ajralib turadi. O‘rinlilikka erishishning asosida tilning so‘z boyligini egallash, xar bir so‘zning ma’no qirralarini chuqur anglash yetadi. So‘zlovchi ayrim so‘z, so‘z birikmalari yoki iboralarining leksik ma’nolarini yaxshi anglamasdan nuqqa kiritilgan, mazkur til vositalari muallif ko‘zlagan ma’noni anglatmaganligi uchun maqsad to‘liq yuzaga chiqmaydi, mantiqsizlik paydo bo‘ladi.

Muloqot paytida suxbatlashlarning shaxsiy, ruhiy xolatlari muxim axamiyat kasb etadi. Chunki, so‘zlovchining nutqi uning nutq so‘zlanib turgan paytdagi ruxiy holatiga ko‘ra turlicha leksik tarkibda va ohangda bo‘lishi mumkin. Bunday nutq tinglovchiga ham turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Eng o‘rinsiz nutq-qo‘pol nutqdir. Qo‘pol nutq tinglovchi kayfiyatini vayron qiladi va ruhiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchining o‘quvchi bilan qo‘pol muomalasi o‘quv materialining yomon o‘zlashtirishiga sabab bo‘lishidan tashqari, o‘quvchilarni o‘zidan bezdiradi.

Nutqning o‘rinliligi ijtimoiy jixatdan juda muxim. Chunki, u bizning nutqiy

xulqimizni boshqaradi.

Maqsadga muvofiq pedagogik nutq o‘zining mantiqiyligi, ishonchliligi, kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o‘zaro hamkorlik tizimida muloqot guyo, shunchaki o‘z-o‘zicha sodir bo‘ladi. Ma’lum bir maqsadga qaratilgan, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda esa, muloqot ijtimoiy vazifasiga aylanadi, natijada o‘qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilio‘i, komunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, o‘qituvchi va ta’lim-tarbiya jarayonida b’ektlarining o‘zaro hamkorlik tizimini tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o‘zaro axborot almashishi, shaxsiy bilish, tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish sanaladi. O‘quvchi bu jarayonini faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

Pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik axamiyati juda katta. Bunda faol pedagogik muloqot – o‘qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni bilish va o‘rganish kaliti va o‘quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o‘quvchi shaxsini shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta’lim-tarbiyada makbul bo‘lgan emotsional muxitni ta’minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to‘siqlarning paydo bo‘lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga solib boshqarishni ta’minlaydigan va o‘quv tarbiyaviy jarayonda o‘quvchining o‘z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan mug‘im vositalar. Pedagogik faoliyatda muloqot o‘quvchilarga zamon talablari asosida ta’lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jixatdan ta’minlash tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Muloqot pedagogik ta’sirning ajoyib vositasi bo‘lib, insonlarar muloqotni ta’minlovchi eng muhim va nozik faoliyatdir. Pedagogik muloqot – shunchaki ijtimoiy-psixologik, pedagogik yoki kommunikativ hodisa emas, avvalo kasbiy, ahloqiy fenomendir (hodisa). Jamiyatda ahloq normalariga qat’iy rioya qilish hamda pedagogik vositalarini ilg‘or jarayonlarini amaliy hayotga keng tatbiqi uchun o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik texnologiyalarini mukammal egallash lozim. Shunday “texnologiya”larning mavjudligini pedagogik tadqiqotlar isbotlab beradi.

O‘qituvchining kommunikativ faoliyatni maqsadli faoliyatga nisbatan ko‘pincha ikkilamchi xarakterga ega bo‘ladi. Pedagogik faoliyatning muhim mikroelementlari nostandart yechimlardan iborat, garchi o‘qituvchi faoliyatida pedagogik vaziyatlar bir qarashda bir biriga o‘hshash ko‘rinsa-da, o‘qituvchining ushbu vaziyatlaridan har bir hatti- xarakati mutlaqo noyob va betakrordir. O‘qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati taxlil qilingan, mukammal shaklga ega bo‘lgan tizimlardan iborat eganligini ko‘rish mumkin:

- O‘qituvchining sinfda, guruhda tahsil oluvchilar jamoasi bilan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan ijodiy tayyorgarlik.
- Tahsil oluvchilar bilan bevosita o‘zaro hamkorlik asosidagi ojodkorlik.

O‘qituvchining pedagogik muloqoti jarayonidagi ijodkorlik bir nechta ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: O‘qituvchining o‘quvchilarni mukammal

bilish jarayonidagi ijodkorligi. Ular bilan o‘zaro hamkorlik tizimidagi ijodkorlik. O‘quvchiga bevosita ta’sirni tashkil qilishdagi ijodkorligi. O‘z xulq-atvorini boshqara olishdagi ijodkorligi. O‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonidagi ijodkorlik.

Bunga misol tariqasida keyingi yillarda davlatimizda chet tillarini mukamal o‘zlashtirishga e’tibor berilayotganligini, barcha ta’lim muassasalarida xorijiy tillari, ayniqsa, ingliz tilini mukammal o‘zlashtirishining yangi dastur va o‘quv rejalari ishlab chiqilganligini xisobga olgan xolda o‘quv muassasalari pedagog kadrllarning chet tilini amaliy o‘zlashtirish jarajasini oshirishning zamonaviy talablarini ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligini keltirib o‘tish joizdir. Pedagog kadrlarning xorijiy tillardagi ilmiy manbalardan kengroq foydalangan xolda tahsil oluvchilarga yanada kengroq bilim berishda, mamlakatimiz o‘quv muassasalarining rivojlangan davlatlar ta’lim muassasalari bilan xamkorligini yanada kuchaytirish hamda ularning halqaro miqyosida integratsiyalashuvida muxim omil bo‘lishi shubxasiz.

Bunda ingliz va boshqa tillar o‘qituvchilarni fanlari bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishi qo‘yidagilarga namoyon bo‘ladi: Kommunikativ (nutqiy, ijtimoiy-madaniy, tilni chuqur bilish); Ijodiy pedagogik faoliyatida o‘zi o‘zlashtirgan bilimi, ko‘nikma, malakani, analiz va sintez qilish; Pedagogik faoliyatini muvofiqlashtirish (shaxsiy kompetensiya – shaxsiy yutuqlarini boshqarishi, o‘zining anglash va kasbiy o‘sishi); Nutq madaniyatiga rioya qilish; milliy va umumilliy qadriyatlarni chuqur bilish, ulardan o‘z faoliyati mobaynida foydalanish; Ilmiy bilimi, badiiy-nazariy, tarixiy-badiiy, tadqiqotchilik; Psixologik-pedagogik uslubiy bilimga ega bo‘lish;

Nutq tajribasi va muloqotchilik; Til vositasi bilan aloqa qilishi, nutq orqali ta’sir qilish; Nutq yordamida muayyan tasavvurlar, fikr va tushunchalar xis-tuyg‘ular hamda turli xarakatlar xosil qilish; Tilning rivojlanishiga doir amaliy va nazariy bilimlarni muntazam ravishda o‘rganib borish; Amerika olimi D.Xaymz kommunikativ kompetensiyaga qo‘yidagilarni qiritadi; Lingvistik (til qoidasiga rioya qilish); Ijtimoiy – lingvistik nutqni ifodalash qoidasi; Diskursiv (mantiqiy fikrlash ketma-ketligi); Suxbatdoshni qo‘llab quvvatlash qoidasi.

Sharq mutafakkiri Nasriddin Tusiy o‘zining “O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida”gi nomli asarida “O‘qituvchi nutqi xech qachon va xech qaerda xaharxandalt, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzilishi mumkin” – deydi. Darhaqiqat, o‘qituvchiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan ijtimoiy talablar uning faoliyati naqadar serqirra ekanligidan dalolat beradi va shu bilan birga o‘qituvchining kommunikativliu qobiliyati yuqori bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., o‘qituvchi 1993.
2. N. Mahmudov. Ma’rifat manzillari. T., Ma’naviyat 1999.
3. A.Ortiqov. A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. T., IIV 2002.
9. R.Rasulov. Q.Mo‘ydinov. Nutq madaniyati. T., 2004.